



**O‘ZBEK TILINING FONETIK TIZIIDA B O‘G‘IN, URG‘U VA
INTONATSIYANING O‘ZARO MUNOSABATI**

Nazarova Sabrina Zafarjon qizi
NamDU Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining fonetik tizimi tarkibida bo‘g‘in, urg‘u va intonatsiya hodisalarining o‘zaro munosabati tahlil qilinadi. Bo‘g‘inning fonetik birlik sifatidagi xususiyatlari, urg‘uning so‘z va nutqdagi roli hamda intonatsiyaning mantiqiy va emotsional ma‘no ifodalashdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, bu birliklarning nutq jarayonidagi funksional uyg‘unligi hamda talaffuz madaniyatini shakllantirishdagi o‘rni ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: fonetika, bo‘g‘in, urg‘u, intonatsiya, aktsentuatsiya, nutq metodikasi, talaffuz.

Annotation: This article analyzes the interrelation of syllable, stress, and intonation within the phonetic system of the Uzbek language. It discusses the phonetic characteristics of the syllable as a unit, the role of stress in words and speech, and the importance of intonation in conveying logical and emotional meaning. The functional harmony of these elements in speech and their significance in developing pronunciation culture are also examined.

Keywords: phonetics, syllable, stress, intonation, accentuation, speech melody, pronunciation.

Аннотация: В данной статье рассматривается взаимосвязь слога, ударения и интонации в фонетической системе узбекского языка. Анализируются фонетические особенности слога как единицы, роль ударения в слове и речи, а также значение интонации в передаче логического и эмоционального смысла. Кроме того, рассматривается функциональное единство этих элементов в процессе речи и их значение в формировании культуры произношения.

Ключевые слова: фонетика, слог, ударение, интонация, акцентуация, мелодика речи, произношение.

Kirish. Bo‘g‘in nutq oqimining tovushdan katta, so‘zdan kichik (ba‘zan bir so‘zga teng) segment birligidir. Fonologik nuqtai nazardan bo‘g‘in sillabema, uni o‘rganadigan soha esa sillabika deb ataladi. Bo‘g‘in unlisiz tuzilmaydi, shuning uchun unli tovush bo‘g‘inning markazi hisoblanadi. U undoshlarni o‘ziga tortib, bir havo zarbi bilan aytiladigan fonetik bo‘lakni — bo‘g‘inni — hosil qiladi. Undoshlar o‘zicha bo‘g‘in yaratmaydi (sonor tovushlar bundan mustasno).

Tadqiqotlat metodologiyasi. Undoshlar unlidan oldin kelganda kuchsiz boshlanib, kuchli tugaydi. Masalan: kitob so‘zidagi “ki” bo‘g‘inida boshida kelgan “k” undoshi shunday. Undosh tovush unlidan keyin kelganda kuchli boshlanadi, so‘ng kuchsizlanib tugaydi. Masalan: kitob so‘zidagi “-tob” bo‘g‘inida oxirida kelgan “b”



undoshi shunday. Ba'zan ikki bo'g'in orasida ikkita bir xil undosh yonma-yon kelib qoladi: muddat (mud-dat) kabi. Bu hodisa geminatsiya sanaladi. Bunda ikkala "dd" bir tovushdek talaffuz etilishi mumkin; oralig'ida esa biroz to'xtash yoki siqilish seziladi. Bu undoshlar ikki balandlikka ega undoshlar sifatida talqin qilinadi.

Demak, bo'g'in tuzilishida undoshlar kuchsiz boshlanuvchi, kuchli tugovchi va ikki balandlikka ega xarakterda bo'ladi. Shu sababli bo'g'in uch qismga bo'linadi: a) bo'g'in boshi – bo'g'in yasovchi tovushning (unlining) balandligigacha bo'lgan qism;

b) bo'g'in markazi (bo'g'in balandligi) — unli tovush;

c) bo'g'in oxiri — bo'g'in markazidan keyingi qism.

Unli (V) yoki unli bilan boshlanuvchi undosh (VS) tipidagi bo'g'inning boshi nolga teng bo'ladi. Masalan: o-ta (birinchi bo'g'in boshi nolga teng), ol-ma kabi. Undosh-unli (CV) tipidagi bo'g'inning oxiri ham nolga teng: ol-ma ("ma" bo'g'inining oxiri nolga teng) kabi.

O'zbek tilidagi umumturkiy so'zlarda: a) boshida unlidan iborat bo'g'in (boshi nolga teng) bo'ladi va bunday bo'g'in faqat so'z boshida uchraydi: o-ta, uch-ta kabi;

b) boshi nolga teng bo'lgan bo'g'in so'z o'rtasida yoki oxirida kam uchraydi — asosan arabcha va ruscha leksik o'zlashmalarda mavjud: ma-o-rif (arabcha), a-or-ta (ruscha) kabi;

v) oxiri nolga teng (CV) tipidagi bo'g'in so'zning barcha qismlarida uchraydi: bo-la, da-la kabi.

g) bo'g'in boshida undoshlarning qatorlashib kelishi asosan ruscha baynalminal so'zlarda uchraydi: traktor (birinchi bo'g'in sxemasi — CCVC).[1.66-78-b.]

Quyida biz bo'g'in turlarini ko'rib chiqamiz:

Berkitilgan bo'g'in — undosh bilan boshlanadi. Masalan: olti so'zining ikkinchi bo'g'ini ("ti").

Berkitilmagan bo'g'in — unli bilan boshlanadi. Masalan: olti so'zining birinchi bo'g'ini ("ol").

Yopiq bo'g'in — undosh bilan tugaydi. Masalan: ol (so'zning birinchi bo'g'ini).

Ochiq bo'g'in — unli bilan tugaydi. Masalan: ti (so'zning oxirgi bo'g'ini).

Tasnifning bu turida o-ta, o-nad so'zlaridagi bir unlidan iborat bo'g'inlar ham, shuningdek tartib, maktab so'zlaridagi "CVC" tipidagi bo'g'inlar ham nazardan chetda qolishi mumkin; shuning uchun adabiyotlarda bo'g'in turlarining turli tasniflari uchraydi.

Tahlillar va natijalar.

M. M. Mirtojiev bo'g'in turlarini quyidagicha tasniflaydi:

Ochiq boshlanuvchi ochiq bo'g'in: a-na, o-la;

Ochiq boshlanuvchi yopiq bo'g'in: ol-tin, il-gak;

Yopiq boshlanuvchi yopiq bo'g'in: bor-moq, nonvoy;

Yopiq boshlanuvchi ochiq bo'g'in: da-la, qo-ra.



M. M. Mirtojiev unli va undoshlardagi ovoz hamda shovqin miqdori har xil bo'lishini inobatga olib, bo'g'inning akustik tasnifini ham beradi. Unli va undosh tovushlar tarkibida un va shovqin miqdori turlicha; agar ularni ball tizimiga asoslangan shkala bo'yicha baholay olsak, unlilar — 4 ball, sonorlar — 3 ball, jaranglilar — 2 ball, jarangsizlar — 1 ball deb hisoblanishi mumkin. Shunga ko'ra bo'g'in tovushlarini tasniflasak, bo'g'inlar turlicha turlarga bo'linadi (bunda bo'g'inning boshi va oxiri nazarda tutiladi).[2.111-119-b.]

Bo'g'in turlariga misollar:

Silliq (bo'g'in boshi va oxiri yumshoq, kesilmagan holatda). Masalan: aëqrolan so'zining birinchi va ikkinchi bo'g'ini.

Kuchayuvchi (yopiq boshlanuvchi ochiq bo'g'in tipidagi hollarda). Masalan: ma, de, shu kabi so'zlar.

Pasayuvchi (ochiq boshlanuvchi yopiq bo'g'in tipidagi hollarda). Masalan: ot, ol, it, et.

Kuchayuvchi–pasayuvchi (yopiq boshlanuvchi yopiq bo'g'in bo'lib, boshi va oxiri biroz yengil tipda): ko'z, non, bir, tur kabi.

A. Mahmudov bo'g'inlarni boshqa xilda tasniflab, quyidagilarni ajratadi:s

To'la ochiq bo'g'in — faqat bir unlidan iborat: a-na, a-ka, o'qa kabi.

To'la yopiq bo'g'in — undosh bilan boshlanib undosh bilan tugaydi: tar-tib, tar-vuz kabi.

Boshi yopiq bo'g'in — undosh bilan boshlanib unli bilan tugaydi: bo'la,s taqna kabi.

Oxirgi yopiq bo'g'in — unli bilan boshlanib undosh bilan tugaydi: or-tiq, o'rta kabi.

Muallif yopiq bo'g'inlarning 7 xil strukturasi mavjudligini ta'kidlaydi (CVC, CCVC, CVCC, CCVCC, CVCCC, SCCVC, CCVCCC va h.k.), shuningdek oxirgi yopiq bo'g'inning bir nechta turlari ham aniqlangan.

Shunday qilib, o'zbek tilida bo'g'inlar turli strukturaviy sxemalarda ifodalanadi.

Bo'g'inning ahamiyati. Bo'g'in so'zning fonetik "qurilish materiali" vazifasini bajaradi va so'z shakllanishida, tovush-qurilmasida muhim rol o'ynaydi. Ayrim tillarda bo'g'inning distinktiv (tafovutlovchi) funksiyasi ham mavjud; o'zbek tilida bu funktsiya zaifroq namoyon bo'ladi.

Bo'g'inlab o'qitish birinchi sinf o'quvchilariga to'g'ri talaffuz va imlo ko'nikmalarini shakllantirishda muhimdir.

Orfografiya qoidalarining ayrim qismi bo'g'in ko'chirilishiga asoslanadi. Bo'g'in she'riyatda ritm, ohang va vaznni ta'minlovchi asosiy unsurlardan biridir; u she'riy misralardagi ritmni tashkil etadi va vazn o'lchovi sifatida xizmat qiladi.

Misollar (she'riy parchalar) ko'rsatilgan holda, ularning bo'g'in tuzilishi turlicha guruhlanib kelishi ta'kidlanadi.[3.45-59-b.]

Aktsentuatsiya — urg'ular tizimi

Aktsentuatsiya — muayyan tilga xos urg‘ular tizimidir. Urg‘u supersegment (ustama) fonetik birlik hisoblanadi. Tilning qaysi sathidagi birliklarga aloqador bo‘lishiga ko‘ra urg‘uning quyidagi turlari farqlanadi:

So‘z urg‘usi.

Sintagma urg‘usi.

Ayiruv (ta’kidlov) urg‘usi.

So‘z urg‘usi — bevosita so‘zga aloqador bo‘lgan, so‘z tarkibidagi bo‘g‘inlardan biriga tushadigan urg‘udir. Fonetik tabiatiga, tushadigan o‘rniga va harakat qilish xususiyatiga ko‘ra so‘z urg‘usi turlicha bo‘ladi.

So‘z urg‘usining fonetik tabiati bo‘yicha turlari:

a) Dinamik urg‘u (zarb urg‘usi). Urg‘uning bu turi so‘z tarkibidagi bo‘g‘inlardan birining, ayniqsa undagi unli tovushning kuchli zarb bilan talaffuz qilinishiga asoslanadi. Kuchli zarb va baland ovoz dinamik urg‘uning akustik belgisi hisoblanadi.

b) Kvantitativ urg‘u. Bu turda urg‘uli bo‘g‘inda unli tovush cho‘ziq (uzoq) talaffuz etiladi.

v) Sifat (timbr) urg‘usi. Bu tur bo‘g‘inda unli tovushning o‘ziga xos timbr belgilari saqlanadi va shu belgi orqali urg‘uli bo‘g‘in urg‘usiz bo‘g‘indan farqlanadi.

g) Tonik (musiqiy) urg‘u. Bu turda bo‘g‘in ovoz tonining o‘zgarishi bilan ajralib turadi — tonik urg‘uda unlilar chastotasi tezlashadi, ovoz toni balandlashadi.

Ko‘plab tillarda so‘z urg‘usi bir nechta fonetik belgilarni o‘zida jamlaydi; ulardan biri yoki ikkitasi til uchun yetakchi bo‘ladi. Masalan, rus tilida tonik (musiqiy) belgining o‘rni muhim bo‘lib, cho‘ziqlik ham seziladi. O‘zbek tilida esa dinamik (zarb) urg‘u ustunlik qiladi; unda cho‘ziqlik va timbr belgilarining ham roli mavjud.

So‘z urg‘usining joylashishiga ko‘ra:

Bog‘langan urg‘u — urg‘u so‘zning ma’lum bo‘g‘iniga doimiy bog‘langan bo‘ladi (masalan, ko‘plab turkiy tillarda so‘z urg‘usi oxirgi bo‘g‘inga tushadi; o‘zbek tilida ham bu xususiyat ko‘p hollarda kuzatiladi: kitob, daraxt, bola, ota, shahar).

Erkin urg‘u — urg‘u turli bo‘g‘inlarga tushishi mumkin (rus tili erkin urg‘uli tillarga misoldir).

Harakat (ko‘chish) belgisi bo‘yicha:

Ko‘chadigan (harakat qiluvchi) urg‘u — so‘zning grammatik shakllanishi bilan urg‘u bir bo‘g‘indan boshqa bo‘g‘inga o‘zgaradi. Bu xususiyat rus tilida keng tarqalgan.

Ko‘chmaydigan (barqaror) urg‘u — urg‘u so‘zning bir bo‘g‘iniga mahkam bog‘langan bo‘lib, boshqa bo‘g‘inlarga o‘tmaydi. O‘zbek tilida ba’zi olmoshlar va naqlarda bunday holatlar kuzatiladi.

So‘z urg‘usining tildagi roli: a) so‘zning fonetik qobig‘ini bir butun sifatida tashkil etadi;

b) nutq oqimida so‘zni boshqa so‘zlardan ajratib olishga yordam beradi;



v) urg'uning harakatliligi orqali so'zlarning leksik yoki grammatik ma'nolarini farqlash mumkin.[4.28-37-b.]

Sintagma urg'usi

Sintagma urg'usi — nutq oqimidagi ma'no jihatdan muhim bo'lgan qismni (sintagmani) alohida ta'kidlash uchun ishlatiluvchi urg'udir. Sintagma urg'usini aniqlash mezonlari: a) semantik mezon;

b) sintaktik mezon.

Sintagma urg'usi fraza (gap) ichidagi mazmunan yaxlit, grammatik jihatdan bir butun bo'lgan qismni maxsus ta'kidlash, uni boshqa sintagmalardan ajratish uchun fonetik vosita sifatida xizmat qiladi.

(Misol: matndagi nutqiy parchalar tahlili keltiriladi — sintagmalar va ularning urg'ulari haqida misollar.)[2.62-68-b.]

Sintagma urg'usining fonetik tabiati:

oxirida ochiq bo'g'in bo'lishi;

kvantitativ (cho'ziqlik) va tonik (balandlik) belgilarining mavjudligi;

intensivlik (zarb) oshishi.

Sintagma urg'usining o'rni maqsad va nutq situatsiyasiga qarab o'zgarishi mumkin; u gapning grammatik tuzilishiga ham ta'sir etadi (misol: urg'u o'rniga bog'liq sintaktik o'qilishlar).

Ayiruv (ta'kidlov) urg'usi va uning turlari

Ayiruv urg'usi — gap bo'laklaridan birini alohida ta'kidlash yoki so'zlovchining his-tuyg'usi hamda voqeaga munosabatini ifodalash maqsadida qo'llanadigan urg'udir. U ikki turga bo'linadi:

Logik urg'u (mantiqiy urg'u). Tinglovchining e'tiborini gap bo'lagiga jalb qilish, shu bo'lak orqali ifodalangan ma'noni ta'kidlash uchun ishlatiladi. Bu holatda urg'u olgan bo'lak odatda boshqa bo'laklardan kuchliroq talaffuz qilinadi.

Masalan: Men universitetda o'qiyman (boshqa birov emas, men...).

Men universitetda o'qiyman (litseyda emas, universitetda...).

Men universitetda o'qiyman (ishlamayman, o'qiyman...).

Intonatsiya esa og'zaki nutqning melodik asosi bo'lib, so'zlovchining hissiy holati, kayfiyati va gapning maqsadini ifodalovchi kompleks fonetik vositadir. U nutq melodikasi, ritm, temp, pauza va tembr singari elementlar orqali amalga oshadi. Intonatsiya yordamida darak, so'roq, undov, chaqiruv kabi gap turlari farqlanadi, bu esa muloqotda tabiiylik va ta'sirchanlikni ta'minlaydi.

Xulosa. Shunday qilib, bo'g'in, urg'u va intonatsiya o'zaro uzviy bog'langan hodisalar bo'lib, ular fonetik tizimning asosiy unsurlaridan biridir. Bu birliklarning o'zaro ta'siri natijasida nutq tovush jihatdan mukammallik, ma'no jihatdan esa aniqlik kasb etadi. Ularni chuqur o'rganish nafaqat tilshunoslik nazariyasi uchun, balki amaliy talaffuz, orfoepiya, she'riyat va nutq madaniyati uchun ham beqiyos ahamiyatga ega.



References/ Литература/Adabiyotlar:

1. Abduazizov A. O'zbek tili fonologiyasi va morfonologiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 1992. (13–16 betlar).
2. Mirtojiyev M. M. O'zbek tili fonetikasi. Toshkent: Universitet, 1998. (35–49 betlar).
3. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullaev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Qayta ishlangan, takomillashtirilgan 3-nashr. Toshkent: O'zbekiston, 1992. (25–26 betlar).
4. Jamolxonov O'. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Fonetika, fonologiya va ortologiya. Toshkent, 1999. (29–30 betlar).